

WINDOWS BILAN ISHLASHNING QULAYLIKLARI VA KAMCHILIKLARI.

O'ralov Shoxruh Shuxratovich.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filioli, Surxondaryo, O'zbekiston
Ilmiy rahbar; Hayitaliyev Jumanazar Dilshod o'g'li

Kirish; Hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan bir davrda kompyuter texnikalari inson hayotida muhim ahamiyatga ega va barcha sohalarida keng qo'llanilmoqda. Ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, bank tizimi va boshqa ko'plab yo'nalishlarda kompyuter texnologiyalarining o'rni tobora ortib bormoqda. Kompyuterning samarali ishlashi esa, avvalo, operatsion tizimga bog'liqdir. Operatsion tizim foydalanuvchi bilan kompyuter o'rtasidagi asosiy vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda eng keng tarqalgan operatsion tizimlardan biri bu Microsoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Windows operatsion tizimidir. Windows o'zining qulay interfeysi, foydalanishdagi soddaligi, ko'plab dasturlar bilan mosligi va xavfsizlik imkoniyatlari sababli dunyo bo'ylab millionlab foydalanuvchilar tomonidan ishlatiladi.

Windows operatsion tizimi oddiy foydalanuvchilar, talabalar, o'qituvchilar, dasturchilar, shifokorlar va turli tashkilotlar uchun keng imkoniyatlarni yaratib beradi. Mazkur maqolada Windows operatsion tizimining afzalliklari, imkoniyatlari va undan foydalanishdagi qulayliklari va kamchiliklari haqida to'liqroq ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar; Windows, Microsoft, operatsion tizim, kompyuter, fayl, dastur, axborot texnologiyalari, internet, tibbiy informatika, foydalanuvchi, interfeys, ma'lumotlar bazasi, elektron tizim.

Asosiy qism; Windows — bu Microsoft kompaniyasi tomonidan yaratilgan operatsion tizim bo'lib, u foydalanuvchi va kompyuter qurilmalari o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Dastlabki Windows versiyasi 1985-yilda ishlab chiqarilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar Windows XP, Windows 7, Windows 8, Windows 10 va Windows 11 kabi ko'plab versiyalari yaratilgan.

Windows operatsion tizimining asosiy vazifalari:

- kompyuter qurilmalarini boshqarish;
- dasturlarni ishga tushirish;
- fayllarni saqlash va boshqarish;
- internet bilan ishlashni ta'minlash;
- foydalanuvchi uchun qulay muhit yaratish.

Windows tizimi grafik interfeysga ega bo'lgan holda foydalanuvchilar uchun judayam qulay hisoblanadi. Sichqoncha yordamida oynalar, menyular va belgilar orqali ishlash mumkin.

Windows interfeysining qulayliklari - windows tizimining eng katta afzalliklaridan biri uning sodd va tushunarli interfeysidir. Hatto yangi foydalanuvchi ham qisqa vaqt ichida Windows bilan ishlashni o'rganib olishi mumkin.

Interfeysning asosiy qismlari:

- Ish stoli (Desktop);
- Vazifalar paneli (Taskbar);
- "Pusk" menyusi (Start menu);

- Belgilar (Icons);
- Oynalar (Windows).

Desktop foydalanuvchi uchun asosiy ish maydoni hisoblanadi. Bu yerda kerakli dasturlar va hujjatlar turadi.

“Start” menyusi esa barcha dasturlar, sozlamalar va fayllarga kirishni osonlashtiradi.

Fayl va papkalar bilan ishlash qulayligi - windows tizimida fayllarni boshqarish juda sodda va qulaydir.

Foydalanuvchi:

- yangi papka yaratishi;
- faylni nusxalashi;
- o‘chirishi;
- ko‘chirishi;
- qayta nomlashi mumkin.

File Explorer dasturi yordamida barcha fayl va hujjatlar tartibli ravishda boshqariladi. Bu esa ish unumdorligini oshiradi.

Dasturlar bilan ishlash imkoniyatlari - windows juda ko‘p dasturlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Masalan:

- Microsoft Word;
- Excel;
- PowerPoint;
- Paint;
- Google Chrome;
- Telegram;
- Zoom.

Bu dasturlar ta‘lim, tibbiyot va biznes sohasida keng foydalaniladi va ish unumdorligini oshirib,insonlarning eng yaqin yordamchisiga aylangan.

Windows tizimida dasturlarni o‘rnatish va o‘chirish ham juda oson. Control Panel yoki Settings orqali kerakli amallar bajariladi.

Internet bilan ishlash qulayliklari - windows internet bilan ishlash uchun keng imkoniyat yaratadi. Foydalanuvchi: ma‘lumot qidirishi,elektron pochta yuborish,video darslar ko‘rishi,online konferensiyalarda qatnashishi kabi bir qancha qulayliklar bor.

Wi-Fi va Bluetooth tizimlari orqali turli qurilmalarni ulash ham juda qulay hisoblanadi.

Windows operatsion tizimi multimedia vositalarini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Unda:musiq tinglash,video ko‘rish,rasm chizish,audio yozish imkoniyatlari ham bor.

Bu imkoniyatlar ta‘lim va ijodiy faoliyatda bo‘ladigan insonlarga judayam qulay.

Windows xavfsizlik tizimi ham katta ahamiyatga ega.Chunki axborot xavfsizligi bugungi kunda juda muhim hisoblanadi. Windows foydalanuvchi ma‘lumotlarini himoya qilish uchun:Windows Defender,antivirus tizimi,parol o‘rnatish,firewall xizmatlariga ega.

Bu esa viruslar va zararli dasturlardan himoyalanihga yordam beradi.

Windowsning ta‘limdagi ahamiyati - ta‘lim jarayonida Windows tizimi juda muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilar va talabalar:

- referat yozadi;
- prezentatsiya tayyorlaydi;

- internetdan foydalanadi;
- online darslarda qatnashadi.

Ayniqsa, tibbiyot yo'nalishida elektron darsliklar va tibbiy dasturlar bilan ishlashda Windows katta yordam beradi.

Windowsning tibbiyotdagi o'rni - hozirgi kunda ko'plab shifoxonalarda Windows tizimi asosida ishlaydigan dasturlar qo'llaniladi. Masalan:

- elektron kasallik tarixi;
- laboratoriya tizimlari;
- rentgen va UTT natijalari;
- online registratura.

Windowsning kamchiliklari

Har bir tizim kabi Windowsning ham ayrim kamchiliklari mavjud:

- viruslarga moyilligi;
- ba'zi versiyalarning pullikligi;
- kuchli kompyuter talab qilishi;
- ba'zi hollarda tizim xatolari yuz berishi.

Shunga qaramay, uning afzalliklari kamchiliklaridan ancha ustundir.

Xulosa; Mening fikrimga ko'ra, Windows operatsion tizimi zamonaviy axborot texnologiyalarining judam muhim vositalaridan biri hisoblanadi hozirgi kunda. Windows foydalanuvchilarga qulay har tamonlama va interfeys, keng imkoniyatlar va samarali ishlash muhitini yaratib beradi har doim faydolanuvchilariga.

Windows operatsion tizimi ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llanilib, insonlarning ish faoliyatini yengillashtirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, yangi foydalanuvchilar uchun soddaligi, tushunariligi har bir yoshda va qulayligi uning ommabopligini yanada o'z hissasini qo'shadi va muvaffaqiyatini siri shunda desam ham mubolag'a bo'lmaydi.

Kelajakda ham Windows tizimi yanada rivojlanib, yangi texnologiyalar bilan boyib borishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar;

- 1] Microsoft Windows Official Documentation.
- 2]. Qosimov — Informatika va axborot texnologiyalari.
- 3]A. Abduqodirov — Kompyuter savodxonligi asoslari.
- 4]Informatika. Akademik litsey darsligi.
- 5]Windows 10 User Guide.
- 6]Axborot texnologiyalari asoslari. Toshkent, 2021.
- 7]Microsoft Office bo'yicha qo'llanma.
- 8]Internet va axborot xavfsizligi asoslari.
- 9]Tibbiyot informatikasi fanidan ma'ruza matnlari.
- 10] www.microsoft.com sayti materiallari.